

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 126 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолiddин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODEL

Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,

Ta'limni rivojlantirish Respublika

ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i

ORCID: 0009-0001-4743-0118

E-mail: j.abdullayev@trm.uz

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim tizimini davlat-xususiy sherikligi (DXSh) asosida transformatsiya qilishning konseptual modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqotda oliy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning institutsional, iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Konseptual model davlatning strategik tartibga soluvchi roli, xususiy sektorning investitsion va innovatsion salohiyati hamda universitetlarning institutsional avtonomiyasini uyg'unlashtirishga qaratilgan. Model oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va boshqaruv samaradorligini kuchaytirishni nazarda tutadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim sohasida DXShni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish va milliy transformatsiya modeliga ilmiy-amaliy asos yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sherikligi, oliy ta'lim, transformatsiya, konseptual model, boshqaruv metodologiyasi, universitet avtonomiyasi, investitsiya, ta'lim sifati.

Abstract. This article develops a conceptual model for transforming the higher education system based on public-private partnership (PPP). The study provides a systematic analysis of institutional, economic, and governance mechanisms that shape cooperation between the public and private sectors in the modernization of higher education. The proposed model integrates the strategic regulatory role of the state, the investment and innovation capacity of the private sector, and the institutional autonomy of universities. It aims to enhance higher education infrastructure, improve educational quality, ensure financial sustainability, and strengthen governance effectiveness. The research findings contribute to the advancement of PPP-based governance methodology and provide a scientific foundation for implementing a national model of higher education transformation.

Keywords: public-private partnership, higher education, transformation, conceptual model, governance, institutional autonomy, investment, quality of education.

Аннотация. В статье разработана концептуальная модель трансформации системы высшего образования на основе государственно-частного партнёрства (ГЧП). В рамках исследования проведён комплексный анализ институциональных, экономических и управленческих механизмов взаимодействия государства и частного сектора в процессе модернизации высшего образования. Предлагаемая модель направлена на гармоничное сочетание стратегической регуливающей роли государства, инвестиционно-инновационного потенциала частного сектора и институциональной автономии университетов. Концептуальная модель ориентирована на развитие образовательной инфраструктуры, повышение качества образования, обеспечение финансовой устойчивости и рост эффективности управления в сфере высшего образования. Полученные результаты формируют научно-методическую основу для совершенствования управления ГЧП и реализации национальной модели трансформации высшего образования.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, высшее образование, трансформация, концептуальная модель, управление, институциональная автономия, инвестиции, качество образования.



KIRISH

Bugungi globallashtirish, raqamlashtirish va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim tizimi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy strategik omillardan biriga aylanmoqda. Mehnat bozori talablarining tez o'zgarishi, texnologik innovatsiyalarning jadal sur'atlarda joriy etilishi, inson kapitaliga bo'lgan talabning ortishi oliy ta'lim tizimini tubdan transformatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu sharoitda davlat-xususiy sherikligi (DXSh) oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va transformatsiya qilishning samarali instrumentlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. DXSh davlatning strategik maqsadlari va jamoat manfaatlarini xususiy sektorning investitsion, innovatsion va boshqaruv salohiyati bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, davlat-xususiy sherikligi asosida tashkil etilgan oliy ta'lim loyihalari infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, universitetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mavjud tadqiqotlar asosan alohida DXSh mexanizmlari yoki moliyaviy jihatlariga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim tizimini kompleks transformatsiya qilishni nazarda tutuvchi yaxlit konseptual modellar ishlab chiqilish muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan, davlat-xususiy sherikligi asosida oliy ta'lim tizimini transformatsiya qilishning konseptual modelini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Bunday model davlat, xususiy sektor va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning institutsional, iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini tizimli ravishda integratsiya qilishga xizmat qiladi. Konseptual model oliy ta'lim sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash, investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish va milliy oliy ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish uchun mustahkam metodologik asos yaratish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nazariy va amaliy asoslari xorijlik olimlardan E. Eskombe, E. Farquharson [1], D. Hall [2], R. Hemming [3], J. Delmon [4], F. Barrera-Osorio [5], H. Patrinos [6], R. Davies [7], E. Iossa, D. Martimort [8] va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lsa, MDH olimlaridan V.A. Kabashkin [9], V.G. Varnavskiy [10], E.A. Mokhortov, A.S. Semchenkov [11], E.A. Dinin [12], V.V. Maksimov [13]larning ilmiy ishlari DXShning dolzarb muammolariga bag'ishlangan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini shakllantirish, bevosita ta'lim xizmatlari, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimini rivojlantirish, DXSh mexanizmini rivojlantirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy va metodologik asoslari respublikamizning iqtisodchi olimlaridan S.S. G'ulomov, Q.H. Abdurahmonov [14], Sh.N. Zaynutdinov [15], N.D. Rahimova, O.Q. Abdurahmonov, N.K. Zokirova [16], M.X. Saidov [17], M.Q. Pardaev [18], B. To'raev [19], N. Yusupov, F. Karabaev [20], U. Jumaniyazov [21], B. Ollanazarov [22], Q. Halmuratov [23], G. Sadullaeva [24] va boshqalarning asarlarida keng yoritiladi. Shuningdek, N. Yusupov va F. Karabaev UNDP loyihalari doirasida DXShning shakllanishi, B. Ollanazarov turizm sohasida DXSh asosida investitsiya mexanizmini takomillashtirish, U. Jumaniyazov esa uy-joy qurilishi sohasida DXSh asosida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, Q. Halmuratov Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan.

Mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida ham oliy ta'lim tizimini rivojlantirish masalalarining ayrim jihatlari o'rganilgan bo'lib, akademik S.S. G'ulomov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda, asosan, oliy ta'lim tizimining samarali boshqaruvini yo'lga qo'yish va bu tizimni xalqaro standartlarga muvofiq raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan [25].

Shuningdek, B.Yu. Xodiev esa oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy yangi o'quv adabiyotlarining ahamiyatini alohida ajratib ko'rsatadi. Ya'ni, buning uchun oliy ta'lim muassasalaridagi kutubxonalar faoliyatini o'zgaruvchan taraqqiyot muhitiga mos ravishda bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini [26] ta'kidlaydi. Milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda iqtisodchi olimlardan N. Yusupov va F. Karabaev BMT Taraqqiyot Dasturi doirasida DXShning shakllanishi va rivojlanishining ayrim nazariy-uslubiy masalalarini tadqiq qilganlar. Shuningdek, U. Jumaniyazov tomonidan esa DXSh asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan izlanishlar olib borilgan bo'lib, biroq ushbu ilmiy izlanishlarda oliy ta'lim tizimida DXSh mexanizmlarini samarali qo'llash va rivojlantirish istiqbollari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda samarali qo'llanilib kelayotgan DXSh asosida oliy ta'lim tizimiga xalqaro standartlarni joriy qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar hamda takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ammo, respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri bo'lgan DXShning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni to'laqonli aniqlanmaganligi, ayniqsa, oliy ta'lim xizmatlari, xususan, oliy ta'lim sohasida qaysi shart-sharoitlarda DXShni rivojlantirish, DXSh loyihalarining ko'lam va davomiyligi, turlari, amalga oshirishning institutsional, tashkiliy mexanizmlari, afzalliklari va kamchiliklarini o'rganish,

tadbirkorlik subyektlarining davlat va oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro aloqalarining zamonaviy sharoitlarga mos keladigan mexanizmlarini qidirib topish, oliy ta'lim sohasida DXSh tamoyillarini qo'llash samaradorligini, rivojlanish istiqbollari va tendensiyalarini aniqlash masalalari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha tadqiq etilmaganligi tanlangan maqola mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy ishni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mazkur ilmiy maqolamizni yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, ekonometrik modellashtirish usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu ilmiy maqolamizni yozish maqsadida olib borilgan tadqiqot doirasida oliy ta'lim tizimini davlat-xususiy sherikligi (DXSh) asosida transformatsiya qilish jarayoni institutsional, iqtisodiy va boshqaruv jihatlarida kompleks tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. Davlat-xususiy sherikligi (DXSh) asosida transformatsiya qilish jarayonining konseptual modeli (jadval shaklida)

Bloklar	Asosiy ishtirokchilar	Mexanizmlar	Boshqaruv instrumentlari	Kutilgan natijalar
I. Strategik-institutsional	Davlat, sohaviy vazirliklar, reguliatorlar	Davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, institutsional islohotlar	Strategik rejalashtirish, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv (RBM), PPP-policy framework	Institutsional barqarorlik, aniq vakolatlar taqsimoti
II. Iqtisodiy-moliyaviy	Xususiy sektor, investorlar, moliya institutlari	Investitsiya jalb qilish, konsessiya, DBFO/BOOT modellari	Xarajat-foйда tahlili (CBA), risklarni taqsimlash matritsasi, KPI	Moliyaviy barqarorlik, investitsiya jozibadorligi
III. Boshqaruv-sifat	OTMlar, akademik menejment	Universitet avtonomiyasi, sifatni boshqarish	KPI, reytinglar, akkreditatsiya, ESG indikatorlar	Ta'lim sifati oshishi, raqobatbardoshlik
IV. Innovatsiya va raqamlashtirish	EdTech kompaniyalar, xususiy operatorlar	Raqamli ta'lim, innovatsion xizmatlar	LMS, data-driven governance, performance monitoring	Samaradorlik, innovatsion muhit

Institutsional tahlil davlat, xususiy sektor va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aniq ko'rsatdi. Xususiy sektor ishtirokida esa investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishda uzoq muddatli ta'lim natijalaridan ko'ra qisqa muddatli moliyaviy manfaatlar ustun qo'yilayotgan holatlar kuzatildi. Universitetlar esa DXSh loyihalarida aksariyat hollarda passiv ijrochi sifatida qatnashib, institutsional avtonomiya va strategik tashabbuskorlik imkoniyatlaridan to'liq foydalanmayotgani aniqlandi.

Iqtisodiy tahlil natijalari DXSh asosida amalga oshirilayotgan loyihalar oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqladi. Biroq, moliyaviy barqarorlik va investitsiya qaytarimini ta'minlash mexanizmlarining yetarlicha ishlab chiqilmagani loyihalarning uzoq muddatli samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, risklarni taqsimlash va boshqarish masalalarida ham tizimli yondashuvning yo'qligi DXSh loyihalarining investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu tahlil asosida davlat-xususiy sherikligiga tayangan oliy ta'lim tizimini transformatsiya qilishning konseptual modeli taklif etildi. Model uchta asosiy blokdan iborat bo'lib, ular: strategik-institutsional blok, iqtisodiy-moliyaviy blok va boshqaruv-sifat blokini qamrab oladi. Strategik-institutsional blok davlatning maqsadli siyosat yuritish, normativ-huquqiy muhitni takomillashtirish va natijalarga yo'naltirilgan boshqaruvni ta'minlash funksiyalarini belgilaydi. Iqtisodiy-moliyaviy blok xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish, moliyalashtirishning diversifikatsiya qilingan mexanizmlarini joriy etish hamda risklarni adolatli taqsimlashni nazarda tutadi. Boshqaruv-sifat bloki esa universitetlarning institutsional avtonomiyasini kuchaytirish, ta'lim sifatini boshqarish va samaradorlikni baholash indikatorlarini joriy etishga qaratilgan.

Taklif etilgan konseptual modelning amaliy qo'llanilishi oliy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash va investitsiyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, DXSh asosida ishlab chiqilgan yaxlit konseptual model oliy ta'limni parchalangan



islohotlardan tizimli transformatsiya bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, model milliy oliy ta'lim tizimini xalqaro raqobat muhitiga moslashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari davlat-xususiy sherikligi (DXSh) oliy ta'lim tizimini transformatsiya qilishda faqat infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish vositasi emas, balki strategik boshqaruv, moliyaviy barqarorlik va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan kompleks mexanizm sifatida qaralishi lozimligini ko'rsatdi. Shu bois, taklif etilgan konseptual model oliy ta'lim tizimini tizimli transformatsiya qilish uchun amaliy jihatdan muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy nuqtayi nazardan, avvalo, oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish bo'yicha yagona strategik siyosat hujjatini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu hujjatda DXShning oliy ta'limni transformatsiya qilishdagi ustuvor yo'nalishlari, maqsadli ko'rsatkichlari va kutilayotgan natijalari aniq belgilab berilishi lozim. Bu davlat organlari, xususiy sektor va universitetlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda DXSh loyihalarining tizimli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarining DXSh loyihalaridagi rolini kuchaytirish zarur. Universitetlarga strategik tashabbus ko'rsatish, loyihalarni ishlab chiqish va boshqarishda keng institutsional avtonomiya berish orqali ularni passiv ijrochidan faol sherikka aylantirish mumkin. Buning uchun universitetlarda DXSh loyihalarini boshqarishga ixtisoslashgan tuzilmalarni tashkil etish, menejerlar va akademik rahbarlarning kompetensiyalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish maqsadida moliyaviy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish lozim. Xususan, investitsiya risklarini adolatli taqsimlash, uzoq muddatli shartnomalarda huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va moliyalashtirishning diversifikatsiya qilingan modellarini joriy etish xususiy investorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan muhit yaratadi. Bu esa oliy ta'lim sohasiga xususiy investitsiya oqimini kengaytirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, DXSh asosida amalga oshirilayotgan oliy ta'lim loyihalarini baholashda natijaga yo'naltirilgan boshqaruv instrumentlarini joriy etish zarur. KPI, ta'lim sifati indikatorlari, bitiruvchilarning mehnat bozorida joylashuvi va ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlari asosida monitoring va baholash tizimini shakllantirish DXSh loyihalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, taklif etilgan konseptual modelni bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi. Avval pilot universitetlarda DXSh asosida transformatsiya mexanizmlarini sinovdan o'tkazish, keyinchalik esa samarali natijalar asosida milliy miqyosda keng joriy etish mumkin. Bu yondashuv amaliy xatarlarni kamaytirish va modelni milliy xususiyatlarga moslashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, davlat-xususiy sherikligi asosida ishlab chiqilgan konseptual model oliy ta'lim tizimini boshqarish samaradorligini oshirish, ta'lim sifati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda inson kapitali rivojini rag'batlantirishga qaratilgan amaliy yechimlar majmuasini taklif etadi. Ushbu modelni amaliyotga joriy etish mamlakat oliy ta'lim tizimini barqaror, raqobatbardosh va innovatsion rivojlanish bosqichiga olib chiqish uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principals of Policy and Finance. 2nd Edition. Butterworth-Heinemann, 2018. ISBN: 978-0-08-100766-2.
2. David Hall., Why public-private partnerships don't work. The many advantages of the public alternative, Psiru, 2015.
3. Richard Hemming. Public-Private partnership. e IMF Institute and the Joint Africa Institute Tunis, Tunisia, February 28 – March 1, 2006.
4. Jeffrey Delmon. Public-Private Partnership Projects in Infrastructure. Cambridge University Press 978-0-521-15228-0.
5. Felipe Barrera-Orsorio. The Impact of Public-Private Partnerships on Private School Performance: Evidence from a Randomized Controlled Trial in Uganda. Economic Development and Cultural Change. 2018. DOI: 10.1086/701229.
6. Patrinos, Harry Anthony. The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education. © 2009 The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank.
7. Peter ED Love, Peter R Davis, Robert Chevis, David J Edwards. Risk/reward compensation model for civil engineering infrastructure alliance projects. Journal of construction engineering and management. 2011/2.
8. Iossa, E., & Martimort, D. (2015). The Simple Microeconomics of Public-Private Partnerships. Journal of Public Economic Theory, 17(1), 4–48. doi: 10.1111/jpet.12114.
9. Кабашкин В.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. М.: Дело, 2010.
10. В.Варнавский. Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы теории и практики. Мировая экономика и международные отношения, 2011, № 9.



11. Е.А.Махортов, А.С.Семченков. Государственно-частное партнерство как форма отношений власти и бизнеса в России. file:///D:/Downloads/ gosudarstvenno-chastnoe-partnerstvo.pdf.
12. Дынин Е.А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве / Дынин Е.А. // Общество и экономика. – 2007.
13. В.В.Максимова. Государственно-частное партнерство в транспортной инфраструктуре. Москва.2010. ISBN 978-5-9614-1143-0.
14. Гулямова С.С, Абдурахмонова К.Х. Образование и человеческое развитие: Мировая практика и опыт Узбекистана. Монография. – Т.: ТГЭУ, 2004. – 170 с.
15. Рахимова Д.Н., Абдурахмонов О.К., Зокирова Н.К. Образовательный маркетинг и рынок труда. – М.: Сов. писатель, 2005. – 144 с.
16. Саидов М.Х., Перегудов Л.В. Менеджмент и экономика высшего образования. – Т.: Молия, 2001. – 252 с.
17. M.Q. Pardaev va H.N. Musaev umumiy tahriri ostida. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohaslarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. – Т.: Iqtisod-moliya, 2008. – 259 b.
18. Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. – Т.: Фан, 2009.
19. Sadullaeva G.S. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 6-son, noyabr–dekabr, 2018.
20. Jumaniyazov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasi uchun diss. avtoreferati. – Т.: TDIU, 2017. – 58 b.
21. Ollanazarov B. Davlat-xususiy sherikchiligi mexanizmi asosida turizm sohasida investitsion faollikni oshirish yo'nalishlari. // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2019. №1. 36–41-b.
22. Halmuratov Q. Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasi uchun diss. avtoreferati. – Nukus: QorDU, 2021. – 63 b.
23. Юсупов Н., Карабаев Ф. Теория и практика государственно-частного партнерства. Учебный модуль. / Под. редак. А.Э.Шайхова. – Т., 2013. www.undp.uz
24. Jumaniyazov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.f.d. ... diss. avtoreferati. – Т.: TDIU, 2018. – 27 b.
25. Ирина И.А., Фанина Е.И. Современные тенденции развития высшего образования. // ISSN: 1991-5497. Мир науки, культуры, образования (электронный журнал). № 5 (96). 2022.
26. Фуломов С.С. Дистанционное экономическое образование. – Т.: Шарк, 2004. – 203 с.
27. Xodiev B.Yu. Oliy iqtisodiy ta'lim tizimi uchun zamonaviy o'quv adabiyotlari yaratish: yangi standart talablari, tuzilishi, mazmuni. – Т.: TDIU, 2005. – 168 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100